

## **KEYT SHOPEN IJODI XIX ASR ADABIY AN'ANALAR KONTEKSTIDA**

Ibdullayeva Zilola

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Keyt Shopenning hayoti va ijodi shuningdek uning ijodiy namunalarining XIX asr adabiy an'analar kontekstida tutgan pozitsion jihatlari bayon etilgan. Bekorchi hikoyasidan tarjima qilingan parchaad jamiyatning ba'zi salbiy odatlarga ega insonlari Paul oobrazi orqali tanqid qilingan.

**Kalit so'zlar:** Keyt Shopen, badiiy adabiyot, ijoiy faoliyat, bekorchi hikoyasi.

### **KIRISH**

Keyt Shopen (Katerina O'Flaxerti) (1850-1904) amerikalik mashhur yozuvchi hamda bir qancha roman va kichik hikoyalari muallifi. Ayni davrda ham mazkur adiba benazir ijodi tufayli yigirmanchi asrning eng yorqin ayol yozuvchilaridan biri sifatida yuqori ta'kidlanmoqda.

Keyt Shopen dastlab 1892 yildan to 1895 yilga qadar faqat bolalar va o'smirlar uchun ijod qildi, yozuvchining o'sha asarlari "Oylik Atlantika", "Zamona", "Asr jurnali" hamda "Yoshlarning hamrohi" nomli turli xil jurnallarda chop etilib turdi.

Keyt Shopenning asosiy kichik hikoyalari 1893 yilda nashr etilgan "Go'dak orzusi" nomli kitobiga jamlangandir. "Bir soatlik hangoma" (1894y) va "Bo'ron" (1898y) nomli hikoyalari ham shular jumlasidandir. Chopin faqat hikoyalari yozish bilangina cheklanib qolmasdan Amerika adabiyotida durdona asarlar sirasiga kiradigan bir nechta atoqli romanlarni ham yozib qoldirdi. Ayniqsa, uning "Gunoh" (1890y) hamda "Uyg'onish"(1899y) nomli romanlari yozuvchi shuhratini yana-da baland cho'qqilarga olib chiqdi.

Keyt Shopen zamonasining eng yetakchi yozuvchilaridan biri sifatida allaqachon tan olib bo'lingan edi. Adibaning porloq nomi hamda uning sermahsul ijodi to bugungi kungacha ham o'z qimmatini saqlab kelmoqda.

Yozuvchining Bekorchi hikoyasi ham davr qiyinchiliklari va qahramon xarakterini o'zida jamlagan ijodiy namuna desak mubolag'a bo'lmaydi.

"....Shunday kezlarda og'aynim Paul bilan birga eshik ostonasiga cho'nqayvolib o'tirgancha chaqchaqlashib o'tirishni xush ko'raman. Paul hamma vaqt ikki qo'lini cho'ntagiga suqib olgancha bekor yuradigan tanbal yigit. Unga nasihat qilishni boshlashim bilan u hingir-hingir qilib kuladi-da, nima, men sening yelkangda



yuribmanmi, deya darrov gapimni qayrib tashlaydi. Mana hozir ham Paul ostonaga bahuzur cho'kkancha bog'dagi olma daraxtining qaerigadir kirib olib tinmay chirqillayotgan zag'izg'onning qo'shig'iga qulq osib o'tiribdi. U menga qushning arz-dod qilayotganini aytadi. Go'yoki zag'izg'on o'z juftini u bilan birga oxirgi visol mavsumini o'tkazib, unga yangi in qurib berishini istab, qattiq nola chekayotgan bo'ladi. Paulning aytishicha, qushga boshqa yor kerak emas ekan. U to suykli juftining yoqimli ovozini o'rmonu dalalar osha sado berib yetib kelmagunicha tinmay kuylayverar emish.

Bu Paul xo'p g'alati yigit-da. Kun bo'yi ko'm-ko'k osmon bo'ylab erinibgina suzib borayotgan oppoq, momiq bulutlardan ko'z uzmay, tikilgancha yotaveradi, hecham zerikmaydi.

Ba'zan u menga teskari o'girilib, bog'dagi gulzorlarning butun bo'yini dimog'iga to'plab olib, atirgul devorining bor iforini go'yo ichib yuborguday bo'lganini so'zlaydi.

Gohida o'tirgan joyimizdan asta turamiz-da, tashqariga chiqib ketamiz, birgalikda tepaliklarning yumshoq yonbag'irlari uzra ko'tarilamiz, olmazorlar va atirgul devorlari oralab o'tamiz, bug'doy boshoqlari o'sib yotgan dalalarning chetlari bo'ylab avaylab qadam tashlaymiz, ayollaru erkaklar, bolalar bilan gavjum ko'chalar ichidan yonma-yon yurib o'tamiz.<sup>1</sup>

U chindanam g'aroyib yigit. U yonimizdan o'tib ketgan har bitta odamning yuziga bir qarab qo'yadi. So'ng menga o'sha odamning ko'zlaridan uning butun ko'ngil dunyosini o'qib chiqqanini aytadi. Paul yer yuzidagi jami erkaklaru ayollar, jamiki bolalar to'g'risida hamma narsani biladi, hattoki ularning nega unday yoki bunday tarzda qarashlarigacha izohlab bera oladi. Paul tag'in odamlarning nima maqsadda u yoqdan-bu yoqqa yugurgilab yurishlariyu boshlaridagi g'am-tashvishlarigacha bari-barini aniqlay oladi. Shu og'aynim bilan birga men go'yo butun koinotni kezib chiqqanday bo'laman. Ha, Paul benihoya dono, u shunday donoki, hatto mening ham aqlim sir-sira bovar qilmaydigan Xudoning tiliga ham bemalol tushuna oladi!

Faqat shu. Boshqa ish qilmaydi, bizning Paul..."

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda hikoyada inson shaxsiyatida uchraydigan salbiy odatlardan biri bekorchilik, tanballikning hayot faoliyatiga ko'rsatadigan salbiy oqibatlari

<sup>1</sup> Koloski B. Hope, violence, and balance in Kate Chopin's «At fault» // Вызовы и ответы XXI века. – Волгоград, 2013. – P. 120–129.



sodda tilda bayon qilinib, muallif jamiyatdagi bekorchilik, loqaydlik kabi manfiy illatlarni qisqa bayon orqali xulosalab beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Koloski B. Hope, violence, and balance in Kate Chopin's «At fault» // Вызовы и ответы XXI века. – Волгоград, 2013. – P. 120–129.
2. Фолкнер У. Статьи, речи, интервью, письма. – М., 2015. – C. 333.
3. Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. – М., 2009. – C. 259.
4. Потапова З.М. Натурализм. Эмиль Золя // История всемирной литературы: В 9 т. – М., 2011. – Т. 7. – C. 293.
5. Коренева М.М. Кейт Шопен // История литературы США: В 4 т. – М., 2003. – Т.4. 9 См.: Le Marquand J. Kate Chopin as Feminist: Subverting the French Androcentric Influence // DeepSouth. – 2016. – V.2. – № 3. <http://www.otago.ac.nz/DeepSouth/vol2no3/chopin.html>
6. Chopin K. Lilacs. <http://www.underthesun.cc/Classics/Chopin.11> Syersted P. Kate Chopin. – Oslo-Baton Rouge, 1969. – P. 84.
7. [www.aim.uz](http://www.aim.uz), [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

